

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA HAKAMLIK SUDLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Odina Turg‘unova

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

odinahonodina707@gmail.com

Annotatsiya: Ijtimoiy munosabatlar o‘zgaruvchan hodisa hisoblanib, zamon rivojlangani sari ijtimoiy munosabatlar ham o‘z o‘rnida o‘zgarib rivojlanib boriladi. Shu munosabat bilan, fuqarolik muomalasi subyektlari o‘rtasida shu jumladan, tadbirkorlik subyekstlari o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni tez, adolatli va qonuniy hal qilinishini ta’minlovchi huquqiy mexanizmlarni shakllantirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqola orqali fuqarolik huquqiy munosabatlarda yuzaga keuvchi nizolar hamda tadbirkorlik subyekstlari o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal qiluvchi muqobil usul sifatida “Hakamlik sudlari” ning ahamiyati va amaldagi qonunchilikdagi muammolar to‘g‘risida mulohazalar olib boriladi.

Kalit so‘zlar: hakamlik sudi, hakamlik sudiyasi, muqobil hal qilish, qonun, ochiqlik, huquqiy mexanizm, takomillashtirish.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullari deganda, qonun hujjatlari yoki taraflarning kelishuvi yoxud ichki lokal hujjatlar bilan belgilangan va huquqiy munosabatlar ishtirokchilari oʻrtasida vujudga keladigan nizolarni suddan tashqari hal qilishga qaratilgan tartib taomillar, usullar va mexanizmlar tushuniladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida nizolarni hal qilishning usullari vaturlari koʻpgina boʻlib quyidagilarni misol qilib koʻrsatish mumkin: taraflarning oʻzaro muzokaralari, mediator ishtirokidagi muzokaralar, yarashuv, mediatsiya, arbitraj(hakamlik) muhokamasi, mustaqil qaror, nizolarni koʻrib chiqish komissiyalari, dastlabki mustaqil baholash, nizolarni hal qilish boʻyicha sudgacha yigʻilish.

Oʻzbekiston Respublikasida nizolarni muqobil hal qilishning quyidagi turlari mavjud:

- hakamlik sudida ish yuritish;
- xalqaro tijorat arbitraj sudida ish yuritish;
- mediatsiya;
- muzokaralar;
- kelishuv bitimi.

Hakamlik sudlari faoliyati fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni koʻrib chiqish va ularni koʻrib chiqish natijalari boʻyicha yuridik ahamiyatga ega boʻlgan hujjatlarni qabul qilishga qaratilgan.

Hakamlik sudlari tarixini nizolarni muqobil hal etish instituti sifatida koʻrib chiqadigan boʻlsak, bu tushuncha birinchi marta Shimoliy Amerika huquqiy doktrinasida mustahkamlanganligi taʼkidlanadi. Hakamlikning zamonaviy konsepsiyasi qadimgi huquqning koʻrsatilgan manbasi bilan oʻxshashligini sezmaslik mumkin emas: avvalgidek nizolashayotgan ikki taraf oʻz ixtiyoriga koʻra, ishonch va hurmat darajasiga qarab hakamni, oʻz navbatida, uchinchi shaxsni tanlaydi.

Mustaqil Oʻzbekistonda 1993-yildagi sud islohotlaridan soʻng hakamlik sudlarining huquqiy tabiatini va konsepsiyasini oʻrganish bilan bogʻliq ilmiy izlanishlar boshlandi. Dastlab 1995-yildan 1958-yil tashkil etilgan va dunyoning 120 dan ortiq davlatlari tan olgan “Chet el arbitraj qarorini tan olish va uni ijro etish haqida”gi Nyu-York konvensiyasiga qoʻshilgan respublikamizda ham odil sudlovning yangi va oʻzgacha nodavlat turi sifatida faoliyat koʻrsatishni boshladi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hakamlik sudlarini rivojlantirish yo‘lidagi keying qadam bo‘lib xizmat qildi. Ushbu farmonning uchinchi qismi uchinchi bandiga ko‘ra “tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy nizolar iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi tomonidan ko‘rib chiqilishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Oliy xo‘jalik sudi va Savdo-sanost palatasi bir oy muddatda belgilangan tartibda “Hakamlar sudi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritsin va bunda tadbirkorlik subyektlari hamda birlashmalarining o‘zlari tomonidan hakamlar sudi tashkil etilishi nazarda tutilishi to‘g‘risida farmon berilgan. Shunday qilib Qonunchilik palatasi tomonidan 2006-yil 8-fevralda “Hakamlik sudlari to‘g‘risida” gi qonun qabul qilishan, Senat tomonidan 2006-yil 25-avgustda ma’qullangan hamda 2007-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

Bugungi kunga kelib hakamlik sudlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari keng ko‘lamda rivojlanmoqda va hakamlik sudlari turli xildagi nizolarni hal qiluvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini tanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4754-son Qarori qabul qilinganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda hakamlik sudlarining iiki turi mavjud bo‘lib, ular doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudlaridir. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik hakamlik sudlarining aksariyati ta’sischi tashkilot rahbarlarining ixtiyoriy farmoyishlari bilan tuziladi va ularning hisobida turadi. “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudlari yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari tomonidan tuziladi va hu tashkilotlar huzurida faoliyat ko‘rsatadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hakamlik sudlarini tashkil etishi hamda hakamlik bitimi taraflari bo‘lishi mumkin emas. Xulosa qiladigan bo‘lsak doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudlari amaldagi qonunchilikga muvofiq mustaqil yuridik shaxs sifatida tashkil etilishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin emas.

Shuningdek, Qonunning 7-moddasiga muvofiq, muvaqqat hakamlik sudi hakamlik bitimi taraflari o'rtasida kelib chiqqan muayyan nizoni hal etish uchun ular tomonidan tashkil etilib, nizo ko'rib chiqilganidan so'ng o'z faoliyatini yakunlaydi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi asosiy hakamlik sudlari bu O'zbekiston Savdo sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudi hamda O'zbekiston hakamlik sudlari assotsiatsiyasi va ularning joylardagi filiallari hisoblanadi.

Nizolarning hal qilishda hakamlik sudlarining ahamiyati shundaki davlat sudlaridan farqli ravishda shaffoflikni ta'minlanishi va ochiqlik prinsplari asosida ishni tomonlarning hoxish irodasidan kelib chiqqan holda olib borilishi, ya'ni tomonlar hakamlik bitimi orqali hakamlik sudi sudyasini o'zlari tanlaydi. Shuninfek davlat boji masalasida ham tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga yengillik berilishi ham hakamlik sudlariga nizbatan talabning yuqoriligini ko'rsatadi.

Tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston Savdo sanoat palatasiga a'zo bo'lgan holda hakamlik sudiga murojaat qilsa davlat bojining ma'lum qismini Savdo sanoat palatasi qoplab berilishi nazarda tutilgan.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorlarining majburiy ijro etilishi mexanizmining mavjudligi ham nizolarni muqobil hal qilishning boshqa usullariga nizbatan ustunlik jihatini ifodalaydi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak ko'pgina yevropa mamlakatlarida asosan tijorat bilan bog'liq bo'lgan nizolarini hal qilish uchun ishlatiladi va asosiysi umumiy arbitraj qonunchiligi asosida ham ichki ham xalqaro tijoriy nizolar hal etiladi, aniqog'i "hakamlik" atamasi qo'llanilmaydi.

Masalan Buyuk Britaniya:

UK Arbitration Act 1996

Iqtisodiy nizolar

Mehnat nizolari

Xalqaro tijorat nizolari

Intellectual mulk nizolari

Istamolchi huquqlari bilan bog'liq nizolar ko'riladi

German Institution of Arbitration 1992

Ichki va xalqaro nizolarni ko‘radi.

Tijorat nizolari

Intellectual mulk bilan bog‘liq nizolar

Xalqar savdo

Bank va moliyaviy o‘tkazmalar bilan bog‘liq bir qancha nizolarni ko‘radi.

Yevropa mamlakatlarida ham hakamlik sudlari ikki xil shaklda doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudlariga bo‘linadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda 300 ga yaqin hakamlik sudi suiyalari faoliyat ko‘rsatadi. Milliy qonunchiligimizda hakamlik sudi sudiysiga nisbatan talablar o‘ta yuzaki va sudiyaning malaka toifasiga e‘tibor berilmagan. Shu munosabat bilan “hakamlik sudiyasi faoliyatini ao‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan hakamlik sudiyalarini tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tgan, shuningdek hakamlik sudiyalari reestriga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkinligini belgilab qo‘yish” maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shu bilan birga hakamlik muhokamasi jarayoni takomillashtirish yuzasidan onlayn hakamlik muhokamasini tashkil etish va uning tartibini joriy etish “hakamlik muhokamasi taraflarining jismoniy ishtirokisiz nizolarni ko‘rib chiqadigan maxsus onlayn platforma asosifa faoliyat ko‘rsatadigan onlayn muomala va tranzaksiyalardan kelib chiqadigan nizolar va pflayn rejimda yuzaga keladigan nizolar uchun ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan online hakamlik muhokamasi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Hakamlilik sudlari to‘g‘risida”gi Qonun.
2. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini tanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. UK Arbitration Act (1996).
5. German Institution of Arbitration (1992).
6. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985; with 2006 amendments).
7. Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Hammualliflikda M.M. Mamasiddiqov, A.A. Xaqberdiyev.
8. Ro‘zinazarov Sh., Mamasiddikov M., Masadikov Sh. “Hakamlilik muhokamasi haqida nimalarni bilish kerak?”. Amaliy qo‘llanma. Toshkent. 2010.